



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 138 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	

TALABALARDA IJTIMOY MAS'ULIYAT HISSINING PSIXOLOGIK MAZMUNI, TUZILISHI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrası v. b. dotsenti

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0009-0002-3298-2750

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tarkibiy tuzilishi va funksional xususiyatlari nazariy hamda amaliy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ijtimoiy mas'uliyat shaxsning jamiyatdagi o'rnini va vazifalarini anglash, o'z xatti-harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini baholash, me'yoriy talablarga ongli ravishda amal qilish hamda umumiy manfaatlar yo'lida mas'uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalovchi murakkab psixologik hodisa sifatida talqin etiladi. Tadqiqot doirasida ijtimoiy mas'uliyatning kognitiv, emotsional-qadriyatli, motivatsion, irodaviy-regulyativ va xulqiy komponentlari o'zaro aloqador tizim sifatida yoritiladi. Shuningdek, uning orientirlovchi, regulyativ, nazorat qiluvchi, integrativ va ijtimoiylashtiruvchi funksiyalari ochib beriladi. Talabalik davrining mustaqil qaror qabul qilish, kasbiy identifikatsiya shakllantirish va ijtimoiy tajribani kengaytirish bilan tavsiflanishi ushbu davrda mas'uliyat hissining rivojlanishi uchun muhim psixologik zamin yaratishi asoslanadi. Maqolada ijtimoiy mas'uliyatning barqaror shakllanishi shaxsning ichki qadriyatlari, o'z-o'zini anglash, refleksiya, empatiya, ijtimoiy motivatsiya va o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarining uyg'un rivojlanishiga bog'liqligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy mas'uliyat, talaba shaxsi, psixologik mazmun, tarkibiy tuzilma, funksional xususiyatlar, kognitiv komponent, emotsional komponent, motivatsiya, irodaviy boshqaruv, xulq-atvor, ijtimoiy me'yor, refleksiya, o'z-o'zini nazorat qilish.

Abstract: This article examines the psychological content, structural components, and functional characteristics of social responsibility among university students. Social responsibility is viewed as a complex psychological formation that reflects an individual's awareness of their role and obligations within society, the ability to evaluate the social consequences of personal behavior, consciously follow normative expectations, and make responsible decisions with regard to collective interests. The structure of social responsibility is analyzed through interrelated cognitive, emotional-value, motivational, volitional-regulatory, and behavioral components. Its orienting, regulatory, controlling, integrative, and socializing functions are also considered. The study emphasizes that the university period, characterized by increasing autonomy, development of professional identity, and expansion of social experience, creates important psychological conditions for the formation of responsibility as a stable personality trait. The development of social responsibility is shown to depend on the coordinated development of personal values, self-awareness, reflection, empathy, social motivation, and self-regulation mechanisms.

Key words: social responsibility, student personality, psychological content, structural components, functional characteristics, cognitive component, emotional component, motivation, volitional regulation, behavior, social norms, reflection, self-control.



Аннотация: В статье рассматриваются психологическое содержание, структурные компоненты и функциональные особенности чувства социальной ответственности у студентов. Социальная ответственность интерпретируется как сложное психологическое образование, отражающее осознание личностью своего места и обязанностей в обществе, способность оценивать социальные последствия собственного поведения, сознательно соблюдать нормативные требования и принимать ответственные решения с учетом общественных интересов. В структуре социальной ответственности выделяются когнитивный, эмоционально-ценностный, мотивационный, волево-регулятивный и поведенческий компоненты, находящиеся во взаимосвязи и образующие целостную систему. Раскрываются ее ориентирующая, регулятивная, контрольная, интегративная и социализирующая функции. Обосновывается, что студенческий возраст, связанный с усилением самостоятельности, формированием профессиональной идентичности и расширением социального опыта, создает благоприятные условия для становления ответственности как устойчивого личностного качества. Отмечается, что развитие социальной ответственности зависит от взаимосвязанного формирования системы ценностей, самосознания, рефлексии, эмпатии, социальной мотивации и механизмов саморегуляции.

Ключевые слова: социальная ответственность, личность студента, психологическое содержание, структурные компоненты, функциональные особенности, когнитивный компонент, эмоциональный компонент, мотивация, волевая регуляция, поведение, социальная норма, рефлексия, самоконтроль.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki, o'z faoliyati natijalari uchun javob bera olishi va umumiy manfaatlarni hisobga olgan holda qaror qabul qilishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, axborot makonining kengayishi, kasbiy va shaxsiy tanlovlar ko'lamining ortishi yosh avloddan nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli xulq-atvorni ham talab etmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim davrida shakllanayotgan shaxsning mustaqilligi, o'z qarorlariga egalik qilish darajasi va jamiyat bilan faol munosabati kelgusidagi fuqarolik hamda kasbiy pozitsiyasining muhim psixologik asoslarini belgilaydi.

Talabalik davri shaxs taraqqiyotining o'ziga xos bosqichi bo'lib, unda mustaqil hayotga tayyorgarlik, kasbiy identifikatsiya shakllanishi, ijtimoiy tajribaning kengayishi va shaxsiy qadriyatlarining qayta tizimlashuvi bir vaqtning o'zida kechadi. Talaba o'quv faoliyati bilan bir qatorda jamoaviy munosabatlar, ijtimoiy tashabbuslar, kasbiy amaliyot va turli qarorlar jarayonida faol ishtirok etadi. Shu sababli mazkur davrda mas'uliyatning tashqi talab sifatidagi ko'rinishidan ichki shaxsiy sifat darajasiga o'tishi uchun qulay psixologik sharoit yuzaga keladi.

Ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi psixologik nuqtayi nazardan insonning o'z xatti-harakatlari va qarorlarining boshqa shaxslar hamda jamiyat uchun yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan oqibatlarini anglash, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarga muvofiq faoliyat yuritish hamda o'z zimmasidagi vazifalarni ongli ravishda bajarish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bunda mas'uliyat faqat majburiyatni bajarish bilan cheklanmaydi. Uning tarkibida xatti-harakatni oldindan rejalashtirish, oqibatni baholash, shaxsiy manfaat va umumiy manfaat o'rtasidagi nisbatni hisobga olish, zarur holatda o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqish kabi psixologik jarayonlar ham mavjud.

Ijtimoiy mas'uliyatning mazmunini chuqurroq anglash uchun uni shaxsning boshqa psixologik xususiyatlaridan farqlash lozim. Mas'uliyatlilik intizom, itoatkorlik yoki ehtiyotkorlik bilan ayrim jihatlarda kesishsa-da, ularning hech biri ijtimoiy mas'uliyat tushunchasini to'liq ifodalamaydi. Shaxs tashqi nazorat tufayli tartibli bo'lishi mumkin, biroq bunday xulq doimo ichki mas'uliyatni anglatavermaydi. Haqiqiy mas'uliyat shaxsning nazorat susaygan sharoitda ham o'z vazifalarini anglab, xatti-harakatini mustaqil ravishda tartibga sola olishi bilan bog'liq.

Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining shakllanishida uning psixologik tuzilishini aniqlash alohida ilmiy ahamiyatga ega. Chunki mazkur hodisa birgina belgidan iborat emas, balki bir necha o'zaro bog'langan komponentlarning faoliyati asosida namoyon bo'ladi. Shaxs ijtimoiy vaziyatni tushunishi, muhim qadriyatlarni anglay olishi, ma'lum xatti-harakatga ichki ehtiyoj sezishi, qarorlarini nazorat qilishi va tegishli xulqni amalda bajarishi kerak. Demak, ijtimoiy mas'uliyatning kognitiv, emotsional-qadriyatli, motivatsion, irodaviy-regulyativ va xulqiy tomonlarini birgalikda tahlil qilish uning psixologik mohiyatini to'liqroq ochib beradi.

Mazkur komponentlar alohida emas, balki bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida faoliyat ko'rsatadi. Masalan, talaba muayyan ijtimoiy vaziyatning mazmunini anglagan bo'lsa-da, unda mas'uliyat motivi yetarlicha shakllanmagan bo'lsa, tegishli xatti-harakat yuzaga kelmasligi mumkin. Xuddi shuningdek, mas'uliyat motivi kuchli bo'lsa ham, o'z-o'zini boshqarish qobiliyati sust rivojlangan taqdirda shaxs o'z niyatini amaliy faoliyatga to'liq ko'chira olmasligi ehtimoldan xoli emas. Shu jihatdan ijtimoiy mas'uliyat yaxlit psixologik tizim sifatida qaralishi lozim.

Ijtimoiy mas'uliyatning funksional jihatlari ham uning mohiyatini tushunishda muhim o'rin tutadi. U shaxs faoliyatini ma'lum yo'nalishga soluvchi orientirlovchi, xatti-harakatni tartibga keltiruvchi regulyativ, natijalarni baholash imkonini beruvchi nazorat qiluvchi, turli psixologik komponentlarni yagona tizimga birlashtiruvchi inte-



grativ va shaxsni jamiyat talablariga moslashtiruvchi ijtimoiylashtiruvchi vazifalarni bajaradi. Demak, mas'uliyat nafaqat xulq-atvorning natijasi, balki uning shakllanishini boshqaruvchi faol psixologik mexanizm ham hisoblanadi.

Talabalarda ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanishi ta'lim mazmuni bilan bir qatorda universitetdagi ijtimoiy muhit, pedagogik munosabatlar, guruhdagi psixologik iqlim, oilaviy tarbiya va shaxsning individual tajribasi bilan ham belgilanadi. Talabaga mustaqil qaror qabul qilish, o'z fikrini asoslash, topshiriq natijasi uchun javob berish va jamoaviy faoliyatda o'z hissasini baholash imkoniyati berilganda, mas'uliyatning amaliy tomonlari yanada faol namoyon bo'ladi. Aksincha, doimiy tashqi nazoratga asoslangan muhit mustaqil mas'uliyatning shakllanishini cheklashi mumkin.

Mazkur muammo bo'yicha ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy mas'uliyatni faqat axloqiy sifat yoki ijtimoiy majburiyat sifatida talqin qilish yetarli emas. U shaxsning bilish jarayonlari, hissiy munosabatlari, qadriyatlar, motivlari, irodaviy imkoniyatlari va amaliy xulq-atvorini birlashtiruvchi ko'p komponentli psixologik hodisadir. Shu sababli talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksiyalarini izchil tadqiq etish zamonaviy psixologiya va oliy ta'lim amaliyoti uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining mazmunini va tarkibiy xususiyatlarini aniqlash, uning asosiy psixologik komponentlarini tizimlashtirish hamda mazkur sifatning shaxs faoliyatidagi funksional vazifalarini ochib berishdan iborat. Shu maqsad doirasida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlarni aniqlash, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tavsiflash va oliy ta'lim sharoitida ushbu sifatni rivojlantirish imkoniyatlarini asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy mas'uliyat muammosi psixologiya fanida shaxsning jamiyat bilan o'zaro munosabati, axloqiy rivojlanishi, xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganib kelinadi. Mazkur tushunchaning murakkabligi uning bir vaqtning o'zida kognitiv, motivatsion, hissiy, irodaviy va xulqiy jarayonlarni qamrab olishi bilan izohlanadi. Shu sababli turli ilmiy maktablar ijtimoiy mas'uliyatning mohiyatini turli nuqtayi nazardan yoritgan bo'lsalar-da, ularning aksariyatida mas'uliyat shaxsning o'z xatti-harakatlarini ijtimoiy talablar va shaxsiy qadriyatlar asosida boshqarish qobiliyati bilan bog'lanadi.

Psixologik adabiyotlarda mas'uliyatning dastlabki muhim jihatlaridan biri uning shaxs tomonidan ijtimoiy va axloqiy me'yorlarni anglash darajasi bilan bog'liqligidir. J. Piagetning axloqiy rivojlanish haqidagi qarashlariga ko'ra, bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida qoidalar tashqi va o'zgarmas talab sifatida qabul qilinadi, keyinchalik esa tengdoshlar bilan o'zaro hamkorlikning kuchayishi natijasida me'yorlarga nisbatan mustaqil munosabat shakllana boshlaydi^[1]. Ushbu yondashuv mas'uliyatning tashqi nazoratga tayanadigan shakldan ichki anglashga asoslangan shaklga o'tishini tushuntirish uchun muhim nazariy zamin yaratadi.

L. Kolberg axloqiy rivojlanish jarayonida shaxsning qaror qabul qilish usuli va axloqiy mulohaza yuritish darajasiga alohida e'tibor qaratadi^[2]. Uning yondashuvida axloqiy xulqning rivojlanishi jazodan qochish yoki mukofotga erishish kabi individual manfaatga yo'naltirilgan motivlardan ijtimoiy tartibni saqlash, burchni anglash va umumiy axloqiy tamoyillarga asoslangan qarorlarga tomon rivojlanadi. Ushbu konsepsiya talabalaridagi ijtimoiy mas'uliyatni tushinishda muhimdir, chunki yetuk mas'uliyat tashqi nazorat bo'lmagan sharoitda ham me'yoriy jihatdan maqbul xatti-harakatni tanlashni nazarda tutadi.

A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirishda kuzatish, ijtimoiy o'rganish va o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarining ahamiyatini ko'rsatadi^[3]. Shaxs atrofidagi insonlarning xatti-harakatlarini kuzatadi, ularning oqibatlarini baholaydi va ma'lum xulq shakllarini o'z tajribasida qo'llay boshlaydi. Talabalik davrida o'qituvchi, guruhdoshlari, oila a'zolari va boshqa ijtimoiy subyektlarning xatti-harakatlari mas'uliyat haqidagi individual tasavvurlarni shakllantirishda namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ijtimoiy mas'uliyatning psixologik mazmunini tushuntirishda o'z-o'zini boshqarish masalasi ham muhim o'rin egallaydi. Inson o'z faoliyatini rejalashtirish, xatti-harakatini nazorat qilish, impulslarini cheklash va faoliyat natijalarini baholash imkoniyatiga ega bo'lgan sari mas'uliyatli qarorlar qabul qilish imkoniyati ortadi. Shu nuqtayi nazardan, R. Baumeister va K. Vohs tomonidan ishlab chiqilgan o'zini boshqarish haqidagi yondashuvlar mas'uliyatli xulqning irodaviy-regulyativ tomonlarini anglash uchun nazariy ahamiyatga ega^[4].

Qadriyatlar tizimi mas'uliyatning mazmunini belgilovchi ichki psixologik asos sifatida qaraladi. S. Shvarts tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlar nazariyasida qadriyatlar inson xulqini yo'naltiruvchi, tanlovlariga ma'no beruvchi va turli faoliyatlar o'rtasida ustuvorliklarni belgilovchi motivatsion mezonlar sifatida izohlanadi^[5]. Ushbu nazariyaga asoslanib, ijtimoiy manfaat, insonparvarlik, adolat, xavfsizlik, hamkorlik va universalizm kabi qadriyatlar ustuvorligi shaxsning ijtimoiy yo'nalgan xulq-atvoriga ta'sir qilishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish mumkin.



E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish konsepsiyasi talabalik davrini shaxsiy identiklikni shakllantirish jarayoni bilan bog'laydi^[6]. Yosh shaxs o'zining kimligi, jamiyatlardagi o'rni, kelajakdagi kasbiy vazifalari va hayotiy tamoyillarini aniqlashga intiladi. Shu jarayonda shaxsiy qadriyatlar qayta ko'rib chiqiladi va ijtimoiy munosabatlarga nisbatan barqaror pozitsiya shakllanadi. Ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanishi ham aynan shu davrda shaxsning "men" va "jamiyat" o'rtasidagi munosabatni qayta anglash jarayoni bilan bog'liq ravishda kuchayishi mumkin.

Ijtimoiy mas'uliyatning emotsional asoslarini tadqiq etishda empatiya va prosotsial yo'nalganlik muammosiga bag'ishlangan ilmiy ishlarga murojaat qilish muhimdir. N. Eisenberg va boshqa tadqiqotchilar prosotsial rivojlanishni boshqalarning ehtiyojlariga munosabat, axloqiy mulohaza va ijtimoiy motivatsiya bilan bog'liq holda o'rganadilar^[7]. Bunday yondashuvdan kelib chiqib, boshqa insonning holatini tushunish va uning ehtiyojlarini hisobga olish qobiliyati ijtimoiy mas'uliyatning hissiy-motivatsion asoslaridan biri bo'lishi mumkin.

J. Restning axloqiy rivojlanish bo'yicha ishlanmalarida axloqiy xatti-harakatni amalga oshirish bir necha o'zaro bog'liq psixologik jarayonlarning birligi sifatida tushuntiriladi^[8]. Shaxs vaziyatning axloqiy jihatini anglaydi, mumkin bo'lgan qarorlarni baholaydi, ma'lum axloqiy variantni tanlaydi va ushbu qarorni amaliy xulqqa aylantiradi. Bu model ijtimoiy mas'uliyat tuzilishini tushuntirishda juda muhim bo'lib, mas'uliyatli xulqni faqat bilim yoki niyat bilan emas, balki real faoliyatga o'tish mexanizmi bilan ham bog'lash imkonini beradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda mas'uliyatning faqat individual psixologik xususiyat sifatida emas, balki shaxs va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi hodisa ekanligiga e'tibor kuchaymoqda. Insonning oilasi, tengdoshlar guruhi, ta'lim muassasasi va kengroq ijtimoiy muhitda olgan tajribasi uning mas'uliyat haqidagi tasavvurlariga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy rollarning murakkablashuvi va mustaqil qarorlarning ko'payishi mas'uliyatni rivojlantirish uchun tabiiy psixologik sharoit yaratadi.

Talabalarning ijtimoiy mas'uliyatini o'rganishda mas'uliyatning mazmuni va uning funksiyalarini birgalikda ko'rib chiqish zarur. Mazmuniy jihatdan u shaxsning ijtimoiy vaziyatni anglashidan tortib, xatti-harakat natijalarini baholashgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab olsa, funksional jihatdan faoliyatni yo'naltirish, tartibga solish, nazorat qilish va ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirish vazifalarini bajaradi. Shu ma'noda, ijtimoiy mas'uliyatni shaxs faoliyatining ichki regulyatori sifatida ham baholash mumkin.

Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish natijasida ijtimoiy mas'uliyatning quyidagi asosiy tarkibiy komponentlarini ajratish mumkin: kognitiv, emotsional-qadriyatli, motivatsion, irodaviy-regulyativ va xulqiy komponentlar. Kognitiv komponent mas'uliyatning mazmunini bilish va ijtimoiy oqibatlarini tushunishni; emotsional-qadriyatli komponent shaxsning ijtimoiy me'yorlarga bo'lgan hissiy munosabati va qadriyatlar tizimini; motivatsion komponent mas'uliyatli harakatga undovchi ichki sabablarni; irodaviy-regulyativ komponent xulqni boshqarish va nazorat qilishni; xulqiy komponent esa mas'uliyatning real faoliyatdagi namoyon bo'lishini ifodalaydi.

Mazkur komponentlarning o'zaro aloqasi ijtimoiy mas'uliyatning yaxlitligini ta'minlaydi. Masalan, bilim mavjud bo'lsa-yu, ijtimoiy motivatsiya yetarli bo'lmasa, mas'uliyatli xulq kutilgan darajada namoyon bo'lmasligi mumkin. Aksincha, kuchli motivatsiya bo'lsa-yu, o'z-o'zini boshqarish sust bo'lsa, shaxs o'z niyatlarini amaliy natijaga aylantirishda qiyinchilikka duch kelishi ehtimol. Demak, ijtimoiy mas'uliyatni o'rganishda uning barcha komponentlarini yagona tizim sifatida ko'rib chiqish metodologik jihatdan muhimdir.

Adabiyotlar tahlili yana shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanganlik darajasi shaxsning ijtimoiy yetukligi bilan bevosita bog'liq. Yetuk mas'uliyatli shaxs o'z xatti-harakatlarini faqat vaziyatning hozirgi talablariga emas, balki uzoq muddatli ijtimoiy oqibatlarga ham moslashtira oladi. U qaror qabul qilishda o'z manfaatlarini bilan bir qatorda boshqalarning manfaatlarini ham hisobga oladi, xatosini tan olish va zarur hollarda uni tuzatish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu esa mas'uliyatning nafaqat me'yoriy, balki refleksiv va rivojlantiruvchi xususiyatga ham ega ekanini ko'rsatadi.

Shunday qilib, mavjud nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili ijtimoiy mas'uliyatni bir o'lchovli shaxsiy sifat sifatida emas, balki shaxsning bilish, hissiy, qadriyatli, motivatsion, irodaviy va xulqiy jarayonlarini birlashtiruvchi murakkab psixologik tizim sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Ayniqsa, talabalik davrida ushbu tizimning rivojlanishi mustaqillik, kasbiy identiklik, ijtimoiy tajriba va o'z-o'zini anglash jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tarkibiy tuzilishi va funksional xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirildi. Tadqiqot metodologiyasini shakllantirishda ijtimoiy mas'uliyatni shaxsning faqat bitta psixologik xususiyati sifatida emas, balki anglash, qadriyat, motivatsiya, hissiy munosabat, o'z-o'zini boshqarish va xulq-atvorning o'zaro bog'langan tizimi sifatida ko'rib chiqish tamoyiliga tayanildi.

Nazariy-metodologik asos sifatida J. Piagetning axloqiy rivojlanish haqidagi qarashlari, L. Kolbergning axloqiy mulohaza yuritish konsepsiyasi, A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv yondashuvi, S. Shvartsning qadriyatlar nazariyasi, J. Restning axloqiy xulq-atvorni izohlovchi modeli hamda o'z-o'zini boshqarishning psixologik



